BUXORO VILOYATI KOGON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2026-yil 20-fevral | 60-2-36-Q/26 | Kogon tuman hokimligi

Kogon tumani mahalliy budjetining 2025-yil daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlarni tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasi hamda Xalq Deputatlari viloyat Kengashining 2026-yil 11-fevraldagi VII-22-6-2-0-/26-sonli qaroriga asosan viloyat, shaharlar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlari rejasiga kiritilgan tegishli oʻzgartirishlar tasdiqlangan.

Bunda, tegishli mahalliy budjet daromadlarining har chorak yakuni bilan prognoz ijrosi hamda budjet tashkilotlarining soʻroviga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, kommunal xizmat va saqlash bilan bogʻliq kutilmagan xarajatlarni oʻz vaqtida amalga oshirish va kreditor qarzdorliklarni oldini olish maqsadida oʻzgartirishlar kiritilgan.

Bundan tashqari, Budjet kodeksining 148-moddasida belgilangan vakolatlarga asosan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilariga Kogon tumani mahalliy budjetidan ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlariga nisbatan 10 foizdan kam miqdordagi oʻzgartirishlar tegishli hokimliklar tomonidan hamda 10 va undan ortiq foiz miqdoridagi oʻzgartirishlar mahalliy kengashlar qarorlari asosida tasdiqlanadi.

Shu munosabat bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28, 143 va 148-moddalari hamda Kogon tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimining 2026-yil 16-fevraldagi 02-06-219/20-01-32/26-sonli xatiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Kogon tumani mahalliy budjetining 2025-yil ijrosi jarayonida:

mahalliy budjetining soliq turlari kesimida daromadlar prognoz rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlar **1-ilovaga muvofiq;**

hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilariga Kogon tumani budjetidan ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari hamda mahalliy budjet xarajatlari rejasiga nisbatan **10 foizdan kam** miqdordagi tegishli oʻzgartirishlar **2-ilovaga muvofiq**tasdiqlansin.

2. Kogon tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimiga:

mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlarni davriy hisobotlarda va mahalliy budjetlarning qoʻshimcha manbalarini aniqlashda hisobga olish;

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 7-oktabrda 3558-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan yoʻriqnoma talablariga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma-bildirishnomalarni tegishli hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilari va budjet tashkilotlariga dasturiy majmua orqali yuborilishini taʼminlash topshirilsin.

3. Ushbu qaror Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdigʻiga kiritilsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati Kogon tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Qazoqov O.N**

Kogon tumani hokimining
2026-yil 20-fevraldagi
60-2-36-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Kogon tumani mahalliy budjetining soliq turlari kesimida 2025-yil daromadlar prognoz rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlar miqdorlari						
1-ilova						mln.soʻm
Daromadlar turlari va mahalliy budjetlar nomi	**2025-yilda tasdiqlangan ***	**2025-yilda oʻzgartirishlar miqdori, jami**	**Choraklar davomida kiritiladigan oʻzgartirishlar**			
			1-chorak	**2-chorak**	**3-chorak**	**4-chorak**
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Norezidentlar tomonidan to'lanadigan foyda solig'i	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Aylanmadan olinadigan soliq	10,330.0	-2,148.2	-220.0	-351.0	-394.2	-1,183.0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	11,726.1	3,908.4	999.9	1,001.5	1,112.2	794.8
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	806.0	-53.9	-15.0	2.0	-14.9	-26.0
Aksiz solig'i	**0.0**	**0.0**	**0.0**	**0.0**	**0.0**	**0.0**
Shundan :						
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0

Oxirigi iste'molchiga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11,353.0	-2,030.2	-500.0	-1,215.0	-345.2	30.0
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7,450.0	-1,158.3	-500.0	84.0	-149.3	-593.0
Yuridik shaxslar yer solig'i	30,812.0	-6,271.5	-867.9	-1,492.0	-3,327.6	-584.0
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	13,623.8	2,526.6	0.0	1,379.0	677.3	470.3
Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2,262.0	-524.3	0.0	-267.0	51.7	-309.0
*Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	3,575.0	108.4	-226.0	-701.2	-496.4	1,532.0
Davlat boji	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Jarimalar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Ijara to'lovlari	70.0	0.0	0.0	5.0	5.0	-10.0
Dividendlar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Yig'imlar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Daromadlar jami	**92,007.8**	**-5,643.0**	**-1,329.0**	**-1,554.7**	**-2,881.5**	**122.1**

Kogon tumani hokimining
2026-yil 20-fevraldagi
60-2-36-Q/26-son qaroriga
2-ilova

Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilariga Kogon tumani budjetidan ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlariga kiritilgan tegishli oʻzgartirishlar

2-ilova mln soʻmda

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	2025 yilda tasdiqlangan *	Viloyat darajasida kiritilgan oʻzgarti-rishlar**	mahalliy budjet parmetrlari doirasida oʻzgarti-rishlar	Tasdiqlangan rejaga nisbatan foizda, %
Xarajatlar miqdori, jami		**92,007.8**	**-360.8**	**0.0**	**0.0%**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi boʻlimi	*19,432.3*	*-320.4*	*-118.3*	*-0.6%*
2	Madaniyat boʻlimi	*4,021.9*	*64.9*	*-2.0*	*0.0%*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*2,950.0*	*237.0*	*17.6*	*0.6%*
4	Sport boʻlimi	*7,310.7*	*455.3*	*0.0*	*0.0%*
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*1,895.0*	*-201.7*	*4.0*	*0.2%*
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*2,531.7*	*116.6*	*-23.0*	*-0.9%*
7	Irrigatsiya boʻlimi	*1,534.6*	*-100.0*	*0.0*	*0.0%*
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	*2,240.0*	*3.1*	*-10.2*	*-0.5%*
9	Hokimyat	*31,261.5*	*361.2*	*11.9*	*0.0%*
10	Hokimyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*862.5*	*1.6*	*0.0*	*0.0%*

11	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	17,967.7	-978.3	120.0	*0.7%*
12	Boshqa tashkilotlar	0.0	0.0	0.0	*0.0%*

** Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-03-033-2-36-K/24-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.*

*** XDVKengashining 2026-yil 11-fevraldagi VII-22-6-2-0-K/26-sonli qaroriga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar ko‘rsatilgan.*

Izoh: *Kogon tumanining 2025-yil 10-sentyabrdagi 260-2-36-Q/25-sonli hamda 2025-yil 11-oktyabrdagi 279-2-36-Q/25-sonli qarorlariga asosan kiritilgan o‘zgarishlar inobatga olingan.*